

**AGROTEXNIKA SOHASIDA INGLIZ TILINI O'RGANISH: ZAMONAVIY  
MUHANDIS UCHUN ZARURAT**

**Itolmasova Qalbinur Furqat qizi<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> "TIQXMMI" MTU talabasi

**Adhamov Saidvalixon Aziz o'g'li<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> "TIQXMMI" MTU talabasi

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 14.06.2025*

*Revised: 15.06.2025*

*Accepted: 16.06.2025*

**ANNOTATSIYA:**

**KALIT SO'ZLAR:**  
*agrotexnika, ingliz tili, texnik mutaxassislik, zamonaviy muhandis, kasbiy rivojlanish, ingliz tili, xalqaro hamkorlik, ilmiy-texnik yangiliklar, til kompetensiyasi, texnik terminologiya, muhandislik ta'limi.*

Ushbu maqolada agrotexnika sohasida ingliz tilining ahamiyati, uning kasbiy rivojlanishdagi o'rni va kelajak istiqbollari yoritilgan. Xalqaro tajribalar, texnik hujjatlar, va ilmiy-texnik adabiyotlar asosan ingliz tilida bo'lgani uchun bu tilni bilish, har bir zamonaviy muhandis uchun zaruriy vosita hisoblanadi. Bugungi globallashuv davrida texnik fanlar, jumladan, agrotexnika tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Aksariyat ilmiy yangiliklar, texnik hujjatlar, darsliklar va qo'llanmalar ingliz tilida yozilgan bo'lib, zamonaviy muhandis ushbu tilni egallamasa, sohadagi yangiliklarni o'zlashtira olmaydi. Ingliz tilini bilish nafaqat nazariy bilimlarni chuqurlashtiradi, balki amaliy faoliyatda, jumladan, xalqaro ko'rgazmalar, ilmiy konferensiylar, xorijiy grantlar va stajirovkalarda muvaffaqiyatli ishtirok etish imkonini yaratadi. Maqolada ingliz tilining agrotexnika sohasidagi ahamiyati, o'qitishning samarali usullari va kelajakdagi istiqbollari ko'rib chiqiladi. Ushbu maqolada agrotexnika sohasida ingliz tilining ahamiyati, uning kasbiy rivojlanishdagi o'rni va kelajak istiqbollari

*yoritilgan.*

*Shuningdek, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ingliz tilini chuqur o'qitish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar va ularning texnik sohalarga ta'siri ko'rib chiqilgan. Mualliflar ingliz tilini texnik mutaxassislar uchun nafaqat aloqa vositasi, balki strategik ustuvorlik sifatida talqin etadilar. Xulosa qismida muhandislar uchun ingliz tilini o'rganish zarurati asoslanib berilgan hamda u kasbiy salohiyatni kengaytiruvchi muhim omil sifatida baholangan.*

**KIRISH.** Zamonaviy qishloq xo'jaligi tobora raqamlashtirilmoqda va yuqori texnologiyalar asosida rivojlanmoqda. Bunday sharoitda agrotexnika sohasidagi muhandislar faqat texnik bilimlargina emas, balki chet tillar, ayniqsa ingliz tilini ham egallashi talab etiladi. Chunki yangi texnologiyalar, texnik hujjatlar va uskunalar bo'yicha ko'rsatmalar, ko'pincha ingliz tilida bo'ladi. Shuningdek, chet ellik hamkorlar bilan samarali muloqot qilish ham til bilimiga bog'liq. XXI asr texnologiyalar asri bo'lib, barcha sohalarda, jumladan, qishloq xo'jaligi va agrotexnikada ham yuksak taraqqiyotga erishilmoqda. Zamonaviy texnika va uskunalarning ishlatalishi bu sohada malakali kadrlar tayyorlashni talab qilmoqda. Ayniqsa, dunyoda agrar tizimda ro'y berayotgan o'zgarishlarni kuzatib borish, ilg'or tajribalarni o'zlashtirish uchun ingliz tilini bilish juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ingliz tili — bu xalqaro ilm-fan va texnologiya tillaridan biri bo'lib, ko'plab muhim manbalar aynan shu tilda taqdim etiladi. Shu bois, agrotexnika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar va faoliyat yuritayotgan muhandislar ingliz tilini puxta o'rganishga intilishi zarur.



**I-rasm.** Agrotexnika va muhandislik sohasini rivojlanishida ingliz tili o'rni juda muhimdir .

**Asosiy qism****1. Texnik axborot va ingliz tilining bevosita bog'liqligi**

Agrotexnika doirasida zamonaviy uskunalar, traktorlardan tortib, dronlar, GPS tizimlarigacha ishlatilmoqda. Masalan, John Deere, New Holland, Case IH, Kubota kabi kompaniyalar ishlab chiqarayotgan texnikaning deyarli barcha hujjatlari va dasturiy ta'minoti ingliz tiliga asoslangan. Ularning ekspluatatsiya bo'yicha ko'rsatmalari, muhandislik diagrammalari, xavfsizlik protokollari ingliz tilida yoziladi. Agar muhandis ushbu tilda yetarli bilimga ega bo'lmasa, texnikani to'g'ri boshqarish yoki nosozliklarni bartaraf etish qiyinlashadi. Shuningdek, zamonaviy agrotexnika tizimlariga o'rnatilgan dasturiy ilovalar va sensor tizimlar, ko'pincha ingliz tilida interfeysga ega bo'ladi, bu esa soha vakillaridan yuqori til kompetensiyasini talab etadi.

**2. Kasbiy rivojlanish uchun imkoniyatlar**

Agrotexnika yo'nalishida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, maqolalar va konferensiya materiallarining aksariyati ingliz tilida chop etiladi. Bu holat zamonaviy muhandis va talabalar uchun ingliz tilini o'zlashtirishni zarurat darajasiga olib chiqmoqda. Ilmiy izlanishlar olib borish, xorijiy tajribalarni tahlil qilish, yangi texnologiyalarni chuqur tushunish va amaliyotga tatbiq etish — bularning barchasi ingliz tilini yetarli darajada bilishni talab qiladi.

Ayniqsa, xalqaro grant va stajirovka dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun ingliz tilidagi intervyularni topshirish, ilmiy maqolalarni yozish hamda xalqaro miqyosda kommunikatsiya olib borish ko'nikmalari muhimdir. Masalan, Erasmus+, DAAD, GKS, Fulbright kabi nufuzli dasturlar orqali xorijda o'qish va malaka oshirish imkoniyatlari mavjud. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun ingliz tilida mustahkam bilimga ega bo'lish zarur.

Til bilimiga ega bo'lgan muhandislar xalqaro ko'rgazmalar, texnologik yarmarkalar, ilmiy seminar va konferensiyalarda faol qatnashadi, o'z malakasini oshiradi, hamda ilg'or texnologiyalarni o'rganib, ularni milliy agrotexnika amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

**3. Kelajak istiqbollari va muhandislik ta'limida ingliz tili**

So'nggi yillarda texnik oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida o'qitiladigan fanlar va yo'nalishlar soni ortib bormoqda. Bu jarayon ingliz tilini o'rganishni shunchaki individual tanlov emas, balki kasbiy majburiyat darajasiga olib chiqmoqda. Xususan, xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlik qilish, chet eldag'i ilmiy jurnallarda maqola chop ettirish yoki xalqaro loyihalarda ishtirok etish imkoniyati aynan ingliz tilini bilishga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qator qaror va farmoyishlarida oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini chuqur o'rgatish, o'qituvchilar va talabalarni xalqaro sertifikatlarga (IELTS, TOEFL) tayyorlash masalalari alohida qayd etilgan. Bu esa muhandislik ta'limida ingliz tilining o'rni tobora mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

### Muhokama va natijalar

Globallashuv sharoitida agrotexnika sohasi xalqaro ilmiy-texnik axborotlar oqimiga tobora bog‘lanib bormoqda. Xalqaro standartlarda ishlab chiqarilgan zamonaviy texnik vositalarning texnik tavsiflari, ishlatish bo‘yicha qo‘llanmalar va muhandislik hujjatlari asosan ingliz tilida bo‘ladi.

Shuning uchun ham, bu tilda erkin o‘qiy olish, tushuna olish va muloqot qila olish agrotexnika mutaxassisiga uchun professional ustunlik hisoblanadi. Bu til nafaqat axborotga kirish vositasi, balki zamonaviy texnologiyalarni anglash, ularni joriy etish va ularga xizmat ko‘rsatishda amaliy kalitdir.

### Statistik ma’lumotlar

- FAO tomonidan 2022 yilda ishlab chiqilgan inglizcha agrotermin lug‘atida 10,000 dan ortiq atama mavjud.

- 2023-yilda o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, eksportga chiqayotgan o‘zbek fermerlarining 65% ingliz tilida o‘z mahsulotini tanishtirishda qiyalangan.

2023-yilda O‘zbekistonga olib kirilgan agrotexnika uskunalarining 91% xorijiy davlatlarda ishlab chiqarilgan.

Ushbu uskunalarga tegishli texnik hujjatlarning 85% ingliz tilida rasmiylashtirilgan (O‘zagrotexhim, 2023).

Oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilidan xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan texnik yo‘nalishdagi o‘qituvchilarning ulushi so‘nggi 3 yilda 37% dan 54% ga oshgan (British Council, 2023).

- O‘zbekistondagi 5 ta agrar universitetda olib borilgan so‘rovda talabalar terminologik bilim darajasi bo‘yicha 100 ballik tizimda o‘rtacha 42 ball to‘plagan.

- So‘rovga javob bergenlarning 78% inglizcha kasbiy terminlarni yodlashni qiyin deb topgan.

NRU Agricultural Engineering Survey (2024) tomonidan o‘tkazilgan so‘rovda, agrotexnika yo‘nalishidagi talabalar orasida 72% ishtirokchi ingliz tilini o‘rganishni kasbiy zarurat deb hisoblagan.



**2-rasm . Muhandislik bu insoniyat rivojining yuqori cho‘qqisidir uni rivoji ingliz tilida berilgan malumot, adabiyotlar bilan birga bo‘ladi .**

**Xulosa**

Agrotexnika sohasida ingliz tilini bilish bugungi davr talabidir. Til bilimiga ega muhandis nafaqat texnik jihatdan qulayliklarga ega bo‘ladi, balki o‘zining kasbiy salohiyatini ham kengaytiradi. Shu boisdan ingliz tilini o‘rganish nafaqat filologlar, balki texnik soha vakillari uchun ham ustuvor yo‘nalish bo‘lishi kerak. Agrotexnika sohasining zamonaviy talablari muhandis va mutaxassislarning nafaqat o‘z ishining ustasi, balki ingliz tilini ham yetarli darajada egallagan bo‘lishini taqozo etadi. Ingliz tilini o‘rganish orqali nafaqat nazariy bilimlar chuqurlashadi, balki amaliy faoliyatda ham samaradorlik oshadi. Til bilimiga ega bo‘lgan muhandis xalqaro maydonda o‘z o‘rnini topadi, ilg‘or texnologiyalarni mamlakatimizga olib kiradi va innovatsion rivojlanishga xizmat qiladi. Shuning uchun, ingliz tilini o‘rganish agrotexnikada faqat ehtiyoj emas, balki strategik ustuvorlikdir.

Agrotexnika sohasida ingliz tilini bilish – zamonaviy davrning eng muhim kasbiy kompetensiyalaridan biridir. Til bilimiga ega bo‘lgan muhandis: texnik yangiliklarni tezda anglab oladi ,xalqaro hamkorlikda faol ishtirok etadi, o‘z ilmiy faoliyatini global miqyosda targ‘ib eta oladi, innovatsion texnologiyalarni milliy amaliyotga tatbiq etadi.

Shunday ekan, ingliz tilini o‘rganish texnik soha vakillari uchun shunchaki til o‘rganish emas, balki strategik ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Bu esa nafaqat individual kasbiy yutuqlar, balki butun agrotexnika sohasining modernizatsiyalashuviga xizmat qiladi.

**Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zagrotem statistik byulleteni, 2023.
2. Crystal, D. (2003). English as a Global Language. Cambridge University Press.
3. FAO: Agricultural Machinery Reports, 2023.
4. NRU Agricultural Engineering Survey, 2024.
5. John Deere. (2022). Operator’s Manual for GPS-guided Tractors5. Temirov, Sh. (2022). “Agrosanoat yo‘nalishida ingliz tilini o‘qitish metodikasi va zamonaviy yondashuvlar.” // Oliy ta’lim muammolari, №1, 41–46-betlar.
6. British Council. (2021). The English Effect: The impact of English on the world today. London.